

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar
fanlarning dolzarb
muammolari**

Jild 3, Son 10

2023

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ 10 (3)-2023

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2023

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳхаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАРИ:

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси

Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети.

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Тайланова Шохида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Васида Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодида Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атакулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари электрон журнали 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.
Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
масъулияти чекланган жамият.

Таҳририят манзили:

Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: scienceproblems.uz@gmail.com

Телеграм канал:

https://t.me/scienceproblems_uz

МУНДАРИЖА

07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

Фарманова Гулнара Комилевна
МЕТОДЫ АРХЕОЛОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ НА ТЕРРИТОРИИ САМАРКАНДСКОГО
СОГДА В КОНЦЕ XIX – НАЧАЛЕ XX ВЕКА 9-18

Саидбобоева Гулзора Нематжоновна
ЎЗБЕКИСТОН МИЛЛИЙ АРХИВИ ҲУЖЖАТЛАРИДА ГИДРОЭЛЕКТР СТАНЦИЯЛАРИНИНГ
ҚУРИЛИШИГА ДОИР МАЪЛУМОТЛАР (XX АСР 20-ЙИЛЛАРИ ОХИРИ-30-ЙИЛЛАР
БОШИ) 19-26

Ахмедов Шахзод Фарход ўғли
МУСТАҚИЛЛИККА ЭРИШИШ АРАФАСИДА ЎЗБЕКИСТОНДА ЧОРВАЧИЛИКНИНГ
УМУМИЙ ҲОЛАТИ ВА МАВЖУД МУАММОЛАРИ 27-34

Mirsoatova Sayyora Turg'unovna
MARKAZIY FARG'ONA NEOLIT JAMOALARI MADANIYATI HAQIDA MULOHAZALAR 35-39

Янгибоева Дилноза Ўктамовна
МУҲАММАД ШАРИФЖОН МАХДУМ САДРИ ЗИЁНИНГ ИЖТИМОИЙ-СИЁСИЙ
ФАОЛИЯТИ 40-48

Маҳмудов Эркинжон Асқаралиевич
АРАБЛАР ТОМОНДАН ФАРФОНАНИНГ ЗАБТ ЭТИЛИШИ ҲАҚИДАГИ МАЪЛУМОТЛАР ВА
УЛАРНИНГ ТАҲЛИЛИ 49-53

Yoriqulov Nasibulla Xoliyorovich
O'ZBEKISTON HUDUDIGA G'ARB ME'MORCHILIK AN'ANALARINING KIRIB KELISHI 54-58

Ergasheva Bahridil G'olibjonovna
IJTIMOIY TARMOQLARDAGI REKLAMALARNING IJTIMOIY-MA'NAVIY HAYOTGA TA'SIRIGA
DOIR MULOHAZALAR (ETNOSOTSIOLOGIK TAHLIL) 59-65

Абдухамидов Исломбек Абдухалим ўғли
МЕҲНАТ МИГРАЦИЯСИНИ ЎРГАНИШДА ИЛМИЙ-НАЗАРИЙ ЁНДАШУВЛАР 66-74

Boltayeva Moxichehra Jamshid qizi
XORIJIIY INVESTITSİYALARNI JALB QILISH BO'YICHA AMALGA OSHIRILGAN ISHLAR VA
ERISHILGAN KO'RSATKICHLAR (JIZZAX VILOYATI MISOLIDA) 75-80

Кандахаров Анваржон Хасанович, Бабаярова Шахноза Шухратовна
БУХОРО ХОНЛИГИДА АБДУЛЛАХОН II ДАВРИНИНГ ҚУРИЛИШ ИНШООТЛАРИ
ТАРИХИГА БИР НАЗАР 81-86

8.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

Boltayev Nurali Shiramatovich
AGRAR OLIIY TA'LIM MUASSASALARIDA MALAKALI KADRLAR TAYYORLASHNING
BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI 87-93

<i>Дустова Мухайё Худайбердиевна</i> РОСТ, УСТОЙЧИВОСТЬ, ДОХОДНОСТЬ: ЭКОНОМЕТРИКА ФИНАНСОВЫХ ПОТОКОВ НА СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ	94-102
<i>Ravshanov Malik Naimovich</i> METHODOLOGY FOR DETERMINING THE NEED FOR ECONOMIC RESOURCES OF THE ROAD TRANSPORT COMPLEX.....	103-108
<i>Xushmuradov Oman Namozovich</i> TIJORAT BANKLARI MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASH ISTIQBOLLARI	109-115
<i>Raximjonov Kamronbek Ixomjon o'g'li</i> DAVLAT XARIDLARINI AMALGA OSHIRISHDA KORRUPSIYANI OLDINI OLISH	116-121
09.00.00 - ФАЛСАФА ФАНЛАРИ	
<i>Наврўзова Гулчеҳра Нигматовна</i> АКАДЕМИК ИБРОҶИМ МЎМИНОВ ИЛМИЙ ЖАСОРАТИНИНГ ЯНГИ ҚИРРАСИ	122-128
<i>Talabov Baxriddin Alijanovich</i> KONSTITUTIONIZM DEMOKRATIK RIVOJLANISHNING ASOSI SIFATIDA	129-134
<i>Tajibaev Muxiddin Abdurashidovich</i> JAMIYAT HAYOTIDA SINERGETIK DUNYOQARASH PARADIGMASINI TADQIQ QILISHNING AHAMIYATI	135-140
<i>Солиев Икромжон Комилжонович</i> РАҚАМЛИ ДУНЁДА ИНСОН ҚАДРИ МУАММОСИ: ИЛМИЙ-ФАЛСАФИЙ ТАЛҚИН	141-147
<i>То'хтайев Hakim Primovich</i> TASAVVUF TA'LIMOTLARIDA QADRIYATLAR TRANSFORMATSİYASINING NAMOYON VO'LISH XUSUSIYATLARI	148-153
<i>Уразалиева Гулшада</i> СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ КАТЕГОРИИ «ГЕНДЕР» В СИСТЕМЕ ОБЩЕСТВЕННЫХ ОТНОШЕНИЙ	154-160
<i>Гуламова Мавжуда Ташпулатовна</i> ИЖТИМОЙ АХЛОҚ МЕЗОНЛАРИНИ ЎРГАНИШДА КУМУШХОНАВИЙ ВАСИЯТНОМАЛАРИНИНГ ЎРНИ	161-167
<i>Xoliqov Lazizjon Maxmud o'g'li</i> GLOBAL O'ZGARISHLAR SHAROITIDA O'ZBEKISTONNING IJTIMOIIY-DUNYOVIY DAVLAT SIFATIDAGI MAQOMI (IJTIMOIIY-FALSAFIY TAHLIL)	168-172
<i>Quvonov Sardor Zokirovich</i> MA'NAVIY TARBIYANI SHAKLLANTIRISHDA "MANOQIBI SHAYX XUDOYDOD VALIY" ASARINING AHAMIYATI	173-178
10.00.00 - ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ	

<i>Халметова Меҳрибону Гайратжонова</i> ЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ДЕТСКОЙ ЛЕКСИКИ В НЕМЕЦКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ	179-186
<i>Abdijabbor Amanov</i> MURAKKAB SINTAKTIK BUTUNLIKNING MATNNING KATTA BIRLIGI SIFATIDA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	187-193
<i>Umarova Xurshida Zikiryoixonovna</i> AQSH ADABIYOTIDA PSIXOLOGIK ROMAN TADRIJI	194-201
<i>Odinayev Bekqul Imamqulovich</i> LISONIY SHAXS: TA'RIF, TAHLIL, TALQIN	202-210
<i>Jaloliddin Jo'rayev, Jamoliddin Jo'rayev</i> "DEVONI LUG'ATIT-TURK" VA "GULSHAN UL-ASROR"DAGI QADIMGI TURKIY SO'ZLAR QIYOSI	211-217
<i>Saidov Akmal Azimovich</i> "TARJIMA NAZARIYASI VA AMALIYOTI" YO'NALISHIDA TAHSIL OLAYOTGAN TALABALARDA MADANIYATLARARO MULOQOT KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH	218-224
12.00.00 - ЮРИДИК ФАНЛАР	
<i>Qosimov Botirjon Ma'ruffjon o'g'li</i> SUDYALAR OLIY KENGASHINI SUDYALARNING CHINAKAM HAMJAMIYATI ORGANIGA AYLANTIRISHNING KONSTITUTSIYAVIY MASALALARI	225-231
<i>Жўраев Дилмурот Мухторович</i> МАЪМУРИЙ ВА ОММАВИЙ ҲУҚУҚИЙ МУНОСАБАТЛАРДАН КЕЛИБ ЧИҚАДИГАН НИЗОЛАРНИ СУДДА ҲАЛ ЭТИШДА КЕЛИШУВ ТАРТИБ-ТАОМИЛЛАРИНИ ҚЎЛЛАШГА ТАЪСИР ҚИЛУВЧИ АЙРИМ МАСАЛАЛАР	232-240
<i>Эшонхонов Камолхон Маматхонович</i> БАНД СОЛИНГАН МУЛКНИ ҚОНУНГА ХИЛОФ РАВИШДА ТАСАРРУФ ЭТИШ ЖИНОЯТИНИ КВАЛИФИКАЦИЯ ҚИЛИШДАГИ АЙРИМ МАСАЛАЛАР.....	241-246
<i>Бўриев Одил Қобилович</i> КОРРУПЦИЯГА ҚАРШИ КУРАШ – ИНСОН ҚАДРИНИ ЮКСАЛТИРИШ МЕЗОНИДИР	247-253
13.00.00 - ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ	
<i>Umarzoda Shohruh Azamat o'g'li</i> "ALGORITMIK TILLAR VA DASTURLASH ASOSLARI" FANI MAZMUNI VA O'QITISHNING MAVJUD HOLATI	254-259
<i>Эргашева Гули Исмоил кизи, Инамова Гуллола</i> ЗНАЧИМОСТЬ ФОРМИРОВАНИЯ ФОНЕТИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ В ПРОЦЕССЕ КОММУНИКАЦИИ.....	260-265

<i>Bobomurotov Sirojiddin Mengziyo o'g'li</i> BOSHLANG'ICH SINFLARDA TABIIY FANLARNI VARIANTIV TUSHUNCHALAR ASOSIDA O'QITISHDA SHARQ MUTAFAKKIRLARINING O'RNI	266-271
<i>Xudoyberdiyev G'iyosiddin Baxtiyor o'g'li</i> BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'QUVCHILARDA SOG'LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK JIHATLARI	272-277
<i>Ботиров Азизбек</i> РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В НЕГОСУДАРСТВЕННЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЯХ: АНАЛИЗ И ПЕРСПЕКТИВЫ	278-283
<i>Эшбеков Сардор Журакулович</i> ЁШЛАРНИ ҲАРБИЙ ВАТАНПАРВАРЛИК РУҲИДА ТАРБИЯЛАШ ТИЗИМИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШИНИГ МУҲИМ ОМИЛИ	284-288
<i>Abdullaeva Feruza Suyunovna</i> KASBIY TERMINOLOGIYANI O'RGATISHDA INTERAKTIV TEXNOLOGIYALARNING O'RNI	289-293
<i>Ortiqov Oybek Rustamovich</i> OLIV TA'LIM MUASSASALARIDA MA'NAVIY-MA'RIFIY ISHLARNING TASHKIL ETILISHI.....	294-298
<i>Erhanova Nasiba Absayitovna</i> MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARINING "TIL VA NUTQ" MARKAZIDA INNOVATSION FAOLIYAT OLIB BORISH	299-303
<i>Robiya Mannopova</i> INNOVATIVE COMPETENCY AS A CORE COMPETENCE OF FOREIGN LANGUAGE TEACHERS.....	304-308
<i>Qodirov Olim Odilovich</i> REFLEKSIV YONDASHUV, UNING MOHIYATI VA KONSEPTUAL ASOSLARI.....	309-314
<i>Xaydarova Mahliyo Xabibullayevna</i> TARBIYA FANINI O'QITISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI.....	315-322
<i>Xasanova Gulsanam Xusanovna</i> IJTIMOIY-MADANIY FAOLIYATDA MAGISTRATURA TALABALARINING TASHKILIY- BOSHQARUV KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH USULLARI	323-328

10.00.00-Филология фанлар

Umarova Xurshida Zikiryoxonovna,
Farg'ona davlat universiteti tayanch doktoranti
umarovahurshida@gmail.com

AQSH ADABIYOTIDA PSIXOLOGIK ROMAN TADRIJI

Annotatsiya. AQSH adabiy jarayoni shakllanishiga mustamlakachilikning ilk davrlarida muntazam tarzda Yevropa adabiyoti ta'sir ko'rsatib keldi. Keyinroq, mamlakatda sodir bo'lgan qator ijtimoiy, siyosiy voqealar ta'sirida amerika adabiyoti o'ziga xos tarzda shakllanib bordi. Ayniqsa, mamlakat mustaqilligi uchun olib borilgan harakatlar, fuqarolar urushi va urushdan keying davrda amerika romanchiligida sezilarli o'zgarishlar sodir bo'ldi. XIX asr oxiri XX asr boshlariga kelib psixologiya ilmi erishgan yutuqlar amerika adabiyotida psixologik romanlar yaratilishiga turtki bo'ldi. Maqolada amerika psixologik romanchiligiga katta hissa qo'shgan yozuvchilar H. Jeyms, T. Drayzer, U. Folkner romanlariga murojaat qilinadi.

Kalit so'zlar: psixologik roman, falsafiy ta'limot, psixologik nazariya, falsafiy mushohada, ong oqimi

Umarova Khurshida Zikiryokhonovna,
PhD Student of Fergana State University

THE RISE OF THE PSYCHOLOGICAL NOVEL IN AMERICAN LITERATURE

Abstract. The formation of the literary process of the United States was regularly influenced by European literature in the early periods of colonialism. Later, under the influence of a number of social and political events that took place in the country, American literature was formed in its own way. In particular, significant changes took place in the American novel during the period of the country's independence, the civil war and the post-war period. At the end of the 19th century and at the beginning of the 20th century, the achievements of the science of psychology stimulated the creation of psychological novels in American literature. The article refers to the novels of H. James, T. Dreiser, and W. Faulkner, who made a great contribution to the American psychological novel.

Key words: psychological novel, philosophical doctrine, psychological theory, philosophical observation, stream of consciousness.

Умарова Хуршида Зикириёхоновна,
Докторант Ферганского государственного университета

ПОДЪЕМ ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО РОМАНА В АМЕРИКАНСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ

Аннотация. На формирование литературного процесса США регулярно оказывала влияние европейская литература в ранние периоды колониализма. В дальнейшем под влиянием ряда общественно-политических событий, происходивших в стране, американская литература формировалась по-своему. В частности, существенные изменения произошли в американском романе в период независимости страны, гражданской войны и послевоенного периода. В конце 19 — начале 20 вв. достижения науки психологии стимулировали создание психологических романов в американской литературе. В статье говорится о романах Х. Джеймса, Т. Драйзера и У. Фолкнера, внесших большой вклад в американский психологический роман.

Ключевые слова: психологический роман, философское учение, психологическая теория, философское наблюдение, поток сознания

DOI: <https://doi.org/10.47390/SP1342V3I10Y2023N28>

Kirish. Amerika adabiyoti tarixi Yevropa va Osiyo xalqlari adabiyotiga nisbatan anchagina qisqa bo'lsa ham, unda turli janr va uslublarning o'ziga xos yorqin namunalari mavjud. Uning atigi to'rt asrlik tarixining deyarli yarmi mustamlakachilik davriga to'g'ri keladi. Shunday bo'lsa-da, zamonaviy jahon adabiyotida Amerika adabiyotining o'z o'rniga ega ekanligi Sinklar Lyuis, Yeujin O'Nil, Pearl Bak, Uilyam Folkner, Ernest Xeminguey, Jon Steynbek, Sol Bellou, Isaak Bashevis Zinger, Toni Morrison [1;762-bet] kabi adabiyot bo'yicha Nobel mukofoti sovrindorlari nomlari bilan o'z tasdig'ini topadi. Shu bilan birga, "Amerika adabiy yo'li"ning o'zi, uning o'ziga xosligi, jahon adabiyotidagi o'rni va ta'siri tarixchilar, faylasuflar, siyosatshunoslar o'rtasida doimiy muhokama mavzusi bo'lib kelgan.

Zamonaviy Amerika adabiyotini o'rganishdan oldin eng avvalo XIX asr ikkinchi yarmida nafaqat ushbu qit'ada, balki butun olamda ro'y bergan ba'zi muhim voqea-hodisalarni esga olmaslikning iloji yo'q. Binobarin, Amerika adabiyoti bo'yicha ko'plab olimlar, tadqiqotchilar, tanqidchilar XX asr Amerika adabiyoti — "XX asr uyg'onish davri" ning tug'ilishi oldingi asr poyonida sodir bo'lganini ta'kidlaydilar [2;12-bet]. Amerika adabiyotining milliy o'ziga xosligi mamlakat tarixiy taraqqiyoti, amerikaliklarning xarakteri, mentaliteti, madaniyati, an'analari, hayot tarzi bilan chambarchas bog'liq bo'lgan qator omillar asosida shakllanib bordi. O'tgan bir necha asrlar davomida mamlakat aholisi soni Yevropa va Osiyodan kelgan turli millat vakillari bo'lgan immigrantlar hisobiga ortib bordi. Aholining mana shunday ko'p millatli tarkibga ega bo'lishi AQSh adabiyotining muhim o'ziga xos xususiyatlaridan birini belgilab berdi. XX asrga qadar Amerikada ingliz tilidan tashqari ispan, fransuz, portugal, italyan, golland, nemis, norveg, shved, yahudiy, ibroniy, xitoy, arab tillarida ko'plab asarlar yozilganligi ma'lum. [3]

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. AQSh adabiyoti tarixi bo'yicha sermahsul tadqiqotlar olib borgan rus adabiyotshunos olimi B. Gilenson Amerika adabiyotining o'ziga xosligini belgilab beruvchi omillar sifatida quyidagilarni ta'kidlaydi:

1. Amerikaga doimiy yashash uchun Yevropa mamlakatlaridagi diniy ta'qiblardan qochib kelgan ilk ko'chmanchilarning puritan xarakteridagi jamiyatida Yevropanikiga o'xshamaydigan qat'iy diniy qoidalarga asoslangan sivilizatsiya shakllandi.

2. Amerikaga kirib kelgan muhojirlar ingliz tilini o'zlashtirsa-da, o'zlarining etnik xususiyatlari va an'alarini saqlab qoldilar va yirik shaharlarda aholi zich joylashgan yahudiylar (Bruklin, Nyu-York), xitoylar (San-Fransisko, Kaliforniya; Chaynataun, Nyu-York), negro va Puerto-rikoliklar (Chikagoning janubiy tomoni) kabi etnik hamjamiyatlar paydo bo'ldi.

3. Mahalliy aholi – hindular yevropaliklar tomonidan o'z vatanlaridan quvg'in qilinib, shafqatsizlarcha qirib tashlanganiga qaramay, hindular madaniyati va folklori AQSh madaniyati va adabiyotining muhim tarkibiy qismiga aylandi. Bu Kuper, Melvill, Longfello, Tven asarlarida ayniqsa, namoyon bo'ladi.

4. Amerikada mustamlakachilikning ilk yillaridan fuqarolar urushi oxirigacha davom etgan qullik mavzusi millat adabiyotiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Qulchilik mavzusi Uitmen, Tven, Folkner, Kolduell, Makkullers va boshqalarning ishlarida kuzatilishi mumkin.

5. Uzoq vaqt davomida oq tanlilar nazaridan chetdan qolgan qora tanli xalqlar madaniyati XX asrda xalqaro darajada e'tibor qozona oldi. Qora tanli etnik guruhning U.E.B.

Dyubois, R. Rayt, L. Hyuz, J. Boldvin, R. Ellison, T. Morrison kabi vakillari ijodi XX asr adabiyotida o'z o'rniga eg bo'la oldi.

6. Regionalizm — Qo'shma Shtatlarning notekis ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojlanishi Amerika adabiyotida o'z aksini topdi. Yevropa an'analari ta'sirida bo'lgan Yangi Angliyaning madaniy markazlari (Longfellow), iqtisodiyoti qul mehnatiga asoslangan, o'ziga xos "janubiy" uslub bilan belgilangan asarlarni hayotga tatbiq etgan janub (V. Folkner, R. P. Uorren, C. Makkallers); dehqonchilik asosiy mehnat faoliyati bo'lgan O'rta G'arb (K. Sandberg, S. Lyuis); juda kuchli milliy folkloriga ega Uzoq G'arb (M. Tven, J. London) uslublarida bir-biridan keskin farq qiluvchi asarlar yaratildi [4; 6-9 betlar].

Yuqorida ta'kidlangan omillar Amerikada qisqa vaqt ichida rang-barang badiiy asar namunalari yaratilishiga sabab bo'ldi. Bundan tashqari AQSH adabiy jarayoni shakllanishiga muntazam tarzda Yevropa adabiyoti ta'sir ko'rsatib keldi. Dastlab Yevropa adabiyotidan andoza olib yaratilgan asarlarda G'arb uslubi yaqqol sezilib turgan bo'lsa, keyinroq, mamlakatda sodir bo'lgan qator ijtimoiy, siyosiy voqealar Amerika adabiyotining o'ziga xos tarzda shakllanib borishiga o'z ta'sirini ko'rsatdi. Bu ayniqsa, mamlakat mustaqilligi uchun olib borilgan harakatlar davrida nafaqat millatning siyosiy ongiga, balki, milliy adabiyotga ham sezilarli ta'sir ko'rsata olgan davlat arbobi va yozuvchi – Benjamin Franklin va unga zamondosh Tomas Jefferson, Tomas Peyn, Jon Adams kabi adiblar ijodida falsafiy aforizmlar va mushohadalarga keng o'rin berilishi bilan o'z aksini topdi.

Amerikada fuqarolar urushi tugaganidan keyingi davr va o'tgan asr boshlari mamlakatda psixologiya fanining mustaqil fan sifatida paydo bo'lishiga, shuningdek, o'ziga xos Amerika adabiy an'alarining shakllanishiga guvoh bo'ldi. Garchi bu ikki muhim hodisa mustaqil ravishda sodir bo'lgan va turli an'alar doirasida ish olib borgan bo'lsa-da, ularda "ong" tushunchasiga nisbatan umumiy qiziqish uyg'ondi [5, XVII]. Bundan tashqari psixologlar va romannavislar ilgari surgan g'oyalarda ham umumiylik mavjud edi, ya'ni, iroda erkinligi, ma'naviy javobgarlik va insonning Yaratgan oldidagi burchi tushunchalari; Gerbert Spenserning evolyutsion g'oyalari va Darvinning evolyutsion nazariyasi; iroda va determinizmning qarama-qarshiligi; insonning o'zi yashab turgan jamiyatdan begonalashish hissi, ong adaptiv funksiyani bajarishi haqidagi g'oyalar psixologiya ilmida ham badiiy adabiyotda ham keng yoritila boshladi.

Aytish mumkinki, XX asr Amerika psixologik romanchiligi uchun nafaqat ingliz adabiyoti klassikasi – Shekspirdan tortib to tanqidiy realizm ustasi Dikkins, fransuz realizmi namoyondalari Balzak, Flober, Zola va albatta, rus adabiyotining Turgenev, Tolstoy, Dostoevskiy, Chexov kabi buyuk vakillarining ijodi, balki, keyinroq, Nitsshe, Spenser, Bergson, Freyd falsafiy qarashlari ham keng asos bo'ldi [6; 211-bet]. XIX asr oxiriga kelib turli falsafiy g'oyalar AQShda misli ko'rilmagan mashhurlikka erishdi. Ayniqsa, 1800-yillar davomida Shotlandiya "sog'lom aql" falsafasi AQSH psixologik tafakkurida hukmronlik qildi. Arastu ta'limotiga asoslangan, empirik va ilmiy falsafani qo'llab-quvvatlovchi shotland "Sog'lom aql" falsafiy maktabi g'oyalari Amerikaga Yevropada tahsil olib qaytgan amerikaliklar tomonidan olib kelingan va ularning aql va ong haqidagi ko'pgina g'oyalari Amerika psixologiyasida saqlanib qolgan [7; 30-bet]. Demak, Amerika psixologiyasi ildizlari tarixan XIX asr shotland falsafasi g'oyalariga borib taqaladi va bu g'oyalar adabiyotda o'z aksini topadi.

XIX asrda Yevropaliklarnikidan ortda qolgan AQSh adabiyoti majoziy ma'noda "Rossiya ekspansiyasi" deb atalgan davrni boshdan kechirdi. H. Jeyms va V. D. Xouells XIX asr oxirida

AQShda rus adabiyotining tom ma'nodagi targ'ibotchilariga aylandi. AQSh adabiy hayotiga kirib kelgan rus yozuvchilari, avval Turgenev, keyin Tolstoy va Dostoyevskiy ijodi, amerikalik hamkasblariga har tomonlama ta'sir ko'rsatdi. Umuman, amerika adabiyotida Drayzer, Folkner, Xeminguey kabi bir qator yozuvchilar rus adabiyoti an'analari, xususan, L. Tolstoy tajribalariga tayanganini kuzatishimiz mumkin. Xususan, Amerika adabiyotida o'ziga xos ijodiy maktab yarata olgan E. Heminguey, U. Folkner buyuk rus adibi L. Tolstoyni o'zlariga ustoz deb, biladilar [8;41-bet].

Qo'shma Shtatlarda roman janri she'r, qissa, qisqa hikoya kabi nisbatan kichik janrlar bilan bir qatorda XIX asrda adabiy kamolotga erishgunga qadar bir necha o'zgarishlarni boshdan kechirdi. "Buyuk Amerika romani" uslubi yaratilishiga bo'lgan ishtiyoq XIX asrning boshlaridanoq, "milliy adabiyot" sifatida boshlandi va XX asrga tomon takomillashib bordi [9;17-bet]. Umuman, XX asr Amerika romanchiligi prinsiplarini belgilab beruvchi xususiyatlar Birinchi jahon urushi arafasida shakllangan. "Amerika Uyg'onish davri"ning ushbu bosqichida yangi avlod amerikalik romannavislar o'zlarining ruhiy muammolari va "Amerika orzusi"dan umidsizliklarini juda keskin ifoda etib, Amerika romanini yangi mavzular bilan boyitdilar [6; 211-bet]. O'z davrining ko'pgina yozuvchilari uchun turli janr va uslubda ijod qilish tajribasiga aylangan Birinchi Jahon urushi yillari Amerika adabiyotida "urush romani" janrini tug'dirdi. Bundan tashqari, 1929-yilda boshlangan jahon tushkunlik davri va uning 30-yillarda davom etib turgan oqibatlari amerikalik yosh yozuvchilarni insonning ma'naviy olami va Amerika jamiyatlari qadriyatlarini o'rganish orqali o'zlarining tushkun kayfiyatini ifodalash va davrning turli ijtimoiy oqimlariga nisbatan xavotirlarini his qilish uchun birlashtirdi. Uslub va shakl bo'yicha qo'llangan eksperimentlar yozuvchilarga tez orada mavzu va g'oya borasida yangidan yangi erkinliklarni olib keldi. Natijada, Amerika romanchiligi jahon adabiyotida mavjud bo'lgan janr va uslublarning shunchaki namunalari emas, balki amerikalik mualliflar uslubining o'ziga xosligini, yetukligini aks ettiruvchi va jahon adabiyotida amerikacha taassurot qoldiruvchi asarlar bilan boyitgan milliy romanchilik sifatida taraqqiy etdi. Umuman, Amerika xalqining bir millat nomi ostida birlashtirgan fuqarolar urushi, materializm va ma'naviy tanazzulni kuchaytirgan shaharlar sanoatlashuvi, ko'plab amerikalik yozuvchilarning hafsalasi pir bo'lishiga olib kelgan ijtimoiy hayot yigirmanchi asr Amerika psixologik romani mavzu va g'oyasi uchun asos bo'lib xizmat qildi. Skalli Amerika adabiyotining eng gullab-yashnagan davri sifatida XIX asrning boshlaridan ikkinchi Jahon urushigacha bo'lgan davrni belgilaydi [2; 906-bet]. Bu borada turli janrlarda bitilgan romanlari jahon adabiyoti durdonalariga aylangan ikki jahon urushi orasidagi davr ayniqsa samarali bo'ldi. Aytish mumkinki, yigirmanchi asrning boshlari Amerika adabiyoti tarixida burilish nuqtasi bo'ldi.

Urushdan keyin Amerika adabiyotida avlodlar almashinuvi jarayoni yaqqol namoyon bo'ldi. Turli yangi janr va uslub ijodkorlari oldinga chiqib, urushlararo yigirma yillikning yulduzlari hisoblangan yozuvchilar o'rnini egallay boshladilar. 1920-30-yillarda mamlakat adabiyotining qiyofasini belgilab bergan E. Heminguey, U. Folkner, Dj. Dos Passos, S. Lyuis kabi buyuk klassiklarning ayrimlari o'z ijodiy yo'llarini yakunladilar. "Native son" romanidan ("Amerika o'g'li") keyin ijodiy izlanishda bo'lgan R. Rayt bu davrga kelib, o'zining falsafiy mushohadaga boy va psixologik nozik xarakterdagi "Long dream" ("Uzoq orzu") romanini yozadi. 1960-yillar - Amerika adabiyotining og'ir judolikka uchragan o'n yilligida milliy adabiyotning ko'zga ko'ringan vakillari R. Rayt (1960), E. Heminguey (1961), U. Folkner (1962), R. Forst (1963), U. K. Uilyams (1963), U. E. B. Dyuba (1963), T. S. Eliot (1965), L. Hansberri

(1965), L. Hyuz (1967), K. Mak-Kallars (1967), K. Sendberg (1967) J.Steynbek (1968), J. Dos Passos (1970), Jon O'Hara (1970) bu yorug' olamni tark etdilar. Shu bilan birga, inqiroz o'n yilligi urushdan keyin ijod qila boshlagan bir qator ijodkorlar uchun juda samarali bo'ldi.

Muhokama. Amerika adabiyoti tarixan Amerika mustaqilligi uchun olib borilgan inqilobiy kurash voqealari ta'sirida rivoj topgan Amerika romantizmiga asoslanadi. Rus adabiyotshunosi Nikolyukin ta'kidlashicha, "Amerika milliy adabiyoti, xususan, romanchiligi Amerika revolyutsiyasi va Fuqarolik urushi oralig'ida shakllanib bordi" [10; 575-90 betlar]. Fuqarolik urushidan keyin Amerika adabiyotida realistik tendensiya o'zini namoyon qila boshladi. XX asr Amerika romanchiligi XIX asr romantizmidan ko'plab xususiyatlarni meros qilib olgan bo'lsa-da, o'tgan asr boshlariga kelib, modernizm ruhida yaratilgan psixologik romanlar o'z zamonasining ilmiy yangiliklari bilan chambarchas bog'liq deyish mumkin. Freyd nazariyalari Amerikaning ilk modernistik adabiyotiga, xususan psixologik romanlari yaratilishiga katta ta'sir ko'rsatdi.

Shuni alohida qayd etish lozimki, XX asr psixologik romanchiligi Zigmund Freydning psixoanaliz ta'limotiga asoslangan bo'lib, u inson ruhiy holati haqidagi turli sir-sinoat va xurofotlarni ochib berishga qaratilgan edi. Inson psixikasini klinik va eksperimental tadqiqotlar asosida o'rgangan Freyd ushbu ilmiy uslubning analitik obyektivligini kengaytirdi. Uning usullari va yondashuvidagi kamchiliklarga qaramay, u ilgari surgan tashqi va ichki odam o'rtasidagi sabab va oqibat munosabatlari insoniyatning jadallashib borayotgan jahon sivilizatsiyadan diskomfortlik holati jamiyat va shaxsiy men o'rtasidagi kelishmovchilikni kuchaytirgan davr uchun ahamiyatlidir. Freydning zamonaviy psixologik nazariyalari amerikalik yozuvchilar ijodida nisbatan kechroq namoyon bo'ldi, chunki uning asarlarining ingliz tilidagi dastlabki tarjimalari XX asr boshlariga kelibgina paydo bo'ldi. G. Sharnhorst Shervud Andersonning "Uindi Makfersonning o'g'li" (1922) romanini Freyd qarashlari aks etgan birinchi Amerika romani deb, ta'kidlaydi [11; 369-bet].

Bundan tashqari, Amerika adabiyotida psixologik roman haqidagi tushunchalarga Richardson, Stendal, Dostoyevskiy asarlari, Uilyam Jeyms va Genri Bergsonning psixologik va falsafiy mulohazalari kabi turli manbalar asos bo'lgani ta'kidlanadi [12; 17-bet]. Psixologik realizm romani inson qalb ko'zi orqali illyuziya va haqiqat orasidagi qorong'i tubsizlikni yoritishni maqsad qiladi. Agar realizm va naturalizm adabiy oqim sifatida konkret, kundalik voqelik va empirizm tasviriga urg'u bergan bo'lsa, zamonaviy badiiy adabiyotda psixologik realizm inson ruhiy olamini oqilona tadqiq etishga qaratilgan adabiy tajribalar samarasi edi. Psixologik roman mohiyatan ratsional romandir. Ya'ni, unda muallif voqealar rivojini jadallashtirishdan ko'ra qahramon ongi va ichki dunyosini taftish etish orqali kitobxonni aniq bir falsafiy g'oya va mushohadalarga yetaklaydi.

Amerika adabiyotida psixologik realizm taraqqiyotiga eng muhim hissa qo'shgan yozuvchilar sifatida dramaturg Artur Miller va AQSh romanchiligi asoschisi sifatida tan olinadigan Henri Jeyms e'tirof etiladi. H. Jeyms turli xil murakkab ijtimoiy vaziyatlarga duch kelgan qahramonlarining ongini o'rganadi va ularni oxiri baxtli yakun topmaydigan tang holatlarga qo'yadi. Uning qalamiga mansub "Vashington maydoni" (Washington Square) va "Ayol portreti" (The portrait of a Lady) Amerika psixologik realizmining cho'qqisi deyish mumkin. Uning badiiy adabiyotga qo'shgan eng yirik hissasi hisoblangan subyektiv uslubi XX asr "ong oqimi" romanlarining paydo bo'lishiga turtki bo'ldi. Uilyam Jeyms nazariyasiga ko'ra inson miyasida ong oqimi uzluksiz, o'zgaruvchan va doimiy ravishda rivojlanib boradi. H. Jeyms

romanlarida murakkab jumalardan foydalanish orqali qahramon ongidagi g'oyalar to'qnashuvini, fikrlarning o'tkinchiligini va hissiyotlarning boyligini ko'rsatadi va shu bilan birga, ong hech qachon to'xtamasligiga, aksincha, unda fikrlar havo oqimidagi atomlarga o'xshab, tinimsiz harakat qilishiga ishora qiladi. Yozuvchi qahramonlarini ataylab yangidan-yangi, g'ayrioddiy muhitga qo'yish orqali uning o'y-fikrlari, axloqi, qaror qabul qilish qobiliyatidagi ichki o'zgarishlarni his qilish, vaziyatni uning nuqtai nazari orqali ko'rish imkonini o'quvchiga taqdim etadi [13]. Umuman, uning nazariy izlanishlari va amaliy ijodi zamonaviy Amerika romani asosiy tamoyillarini shakllantirishga xizmat qilgan. Amerikalik yozuvchi mahoratining cho'qqilari hisoblangan "Pointon o'ljasi" ("The spoils of Poynton", 1897), "Meyzi nimani bilardi" ("What Maisie knew", 1897), "Noqulay yosh" ("The awkward age", 1899), "Muqaddas manba" ("The sacred Fount", 1901) va boshqa romanlarida voqealar rivoji va "haqiqat"ni asar qahramonlari tasavvurlari orqaligina bilib olish mumkin. H. Jeyms romanlariga xos umumiy xususiyat shundaki, undagi qahramonlarning o'zaro muloqotlari va ichki hissiyotlari amaliy harakatlarga nisbatan ancha jiddiy rol o'ynaydi [14; 4-5 betlar]. Shuningdek, H. Jeyms o'z romanlarida tez-tez ong oqimi romanlariga xos texnika – asarni tugallanmagan yakun bilan ochiq qoldirish usulini qo'llaydi.

Natijalar. Romanni yakunlash murakkab jarayon. Yozuvchi real hayotning cheksiz ilyuziyasini minglab, millionlab insonlar orasidan tanlab olingan sanoqli kishilar taqdiri misolida sharhlaydi. Ba'zan muallif hayotning sirli tabiatini aks ettirish va o'quvchini ataylab ana shu sir-sinoat domiga tortish uchun roman yakunini ochiq qoldiradi. Ochiqlikni keltirib chiqaruvchi bir qancha sabablar bo'lib, bunda muallif qasddan roman yakunini ochiq qoldirishi, konfliktni yechishdan bosh tortishi yoki ongli qarama-qarshilikning yuzaga kelishi kabilar bo'lishi mumkin. Noaniq epizodlar, noaniq til, qarama-qarshi nuqtai nazar, ishonchsiz yoki mavjud bo'lmagan hikoyachi nutqi roman yakunini ochiq qoldirish texnikalari hisoblanadi. Romanning yakuni – uning yuragi deb hisoblagan H. James bunday badiiy texnikalardan unumli foydalangan. U har qanday noshirning "romanning yakuni tugallanishi shart" degan talabiga qarshi chiqib, "men romanga bundan boshqa yakunni bera olmayman", deya izoh bergan [15].

"Baxtiqaro Kerri" ("Sister Carrie", 1900) romanining yaratilishi nafaqat 30 yoshida buyuk adabiyotga kirib kelgan yana bir amerikalik yozuvchi Teodor Drayzer uchun ijodiy faoliyatning boshlanishi, balki, Amerika adabiyoti tarixidagi muhim nuqtalardan biri bo'ldi, deyish mumkin. Yozuvchining opasi Emmaning hikoyasiga asoslangan avtobiografik xususiyatga ega ushbu roman chin ma'noda XX asr Amerika psixologik realizmi uchun juda muhim hodisa bo'ldi.

"Baxtiqaro Kerri" ijtimoiy-psixologik roman bo'lib, unda XIX asr klassik romanlarida (Stendal, Balzak, Flober, Mopassan, Dikkens va boshqalar ijodida) urf bo'lgani kabi yosh inson taqdiri haqida hikoya qilinadi. O'lis provinsiyadan katta shaharga kelgan yosh ayolning boyluk va muvaffaqiyatga erishish bilan birga ma'naviy yoqotishlarga uchrashi tabiiy jonlantirib beriladi. Bosh qahramonlar Kerri Miber va Xerstvudning taqdiri bir-biriga qarama-qarshi qo'yilgan bo'lib, ularning hayot yo'llarida Amerika haqiqatining chuqur naqshlari o'ziga xos aks ettirilgan. Roman Drayzer badiiy uslubining eng muhim xususiyatini ham ochib bergan: u o'z qahramonlarining taqdirini keng falsafiy kontekstda tasvirlaydi, bu romanning har bir bobida ikki qismli sarlavha bilan ta'kidlanadi. Masalan, 39-bob: "Nurlar va soyalar. Dunyolarning bo'linishi" (Chapter 39. Of Lights and Shadows. The parting the worlds); 42-bob: "Bahor nafasi. Bo'sh qobiq" (Chapter 42. A touch of spring. The empty shell). Boblarning bunday nomlanishi tana

va ruh o'rtasidagi bo'linishga ishora bo'lib, sarlavhalar ushbu boblarning ramziy yoki allegorik asosini ta'minlaydi.

Munaqqidlar tomonidan "romanlari erishib bo'lmaydigan jasorat" deya e'tirof etilgan U. Folknerning "Shovqin va g'azab" ("The Sound and the Fury") asari o'ziga xos ong oqimi texnikasi qo'llangan asar sifatida baholangan. Adib kitobxonni qahramon ong oqimiga yetaklash uslubidan "Men o'layotgan vaqt" ("As I lay dying") romanida ham foydalangan. Bu asarning o'ziga xosligi shundaki, jami 59 ta ichki monologdan tarkib topgan romanda muallif so'zi umuman uchramaydi. Folkner asarlari voqealari u yaratgan xayoliy manzil Yonapatoupa okrugida sodir bo'ladi. Bu uning jami 13 ta romanida tilga olinadi. 1929 yilda chop etilgan "Shovqin va g'azab" romanidan boshlab Folkner uslubida modern adabiyot uslublari, jumladan, "ong oqimi" texnikasi, xronikal syujetdan ko'ra ko'proq assotsiativ syujetga murojaat qilish namoyon bo'la boshladi. Bu kabi modernistik uslublar Folknerga Amerikaning janubiy shtatlarida yashovchi oddiy insonlarning kundalik hayoti misolida butun insoniyatning umuminsoniy haqiqatlarini tasvirlash imkonini berdi. Uning bir necha asarlarida ishtirok etgan Kompsonlar oilasi – yigirmanchi asr boshlarining qiyin damlarida o'z oilasi obro'si uchun kurashayotgan janublik aslzodalar fojeasini psixologik nuqtai nazardan asoslab ko'rsatadi.

O'n to'qqizinchi asrning oxiriga kelib, tobora keskin farqlanib borayotgan shahar va qishloq hayoti, insoniyat jamiyati axloqiy falsafasiga darvinizmning ta'siri Amerika markaziy paradokslariga aylandi. Uilyam Jeymsning "Psixologiya tamoyillari" (1890) asarida zamonaviy hayotning asosini belgilovchi ma'naviy, tarbiyaviy va axloqiy tamoyillar o'rganildi. Natijada inson tafakkuri haqidagi ushbu noyob asar Amerikada psixologik roman janri yaralishida katta ahamiyatga ega bo'ldi. XIX asr so'nggi choragida H. James tomonidan yaratilgan ilk psixologik romanlardan so'ng o'tgan asr boshlarida T. Drayzer, U. Folkner kabi yozuvchilarning ijtimoiy-psixologik romanlari paydo bo'ldi.

Xulosa. Zamonaviy Amerika romani shakl va mazmuniga o'zgartirish kiritgan tarixiy voqealar, I va II Jahon urushi modern adabiyotda psixologik romanni falsafiy g'oyalar bilan boyitdi. J. D. Salindjerning "Javdardagi ovchi" ("The catcher in the Rye"), "Bit avlodi"ga mansub Jek Keruakning "Yo'lda" nomi psixologik romanlarida inson o'zligini qidirish, Sol Bellouning "Gertsog", Jon Irvingning "Garp nazdida dunyo" nomli murakkab syujetli romanlari qahramonlari chigal vaziyatlarda hayot mazmunini izlashga harakat qiladilar. O'z nazorati ostida bo'lmagan ijtimoiy kuchlar ichida qolgan insonlar duch kelgan dislokatsiya va hayot uchun kurash o'tgan asrda insoniyat boshiga kelgan jiddiy tashvishlarga reaksiya sifatida shakllanadi. Amerika psixologik romanchiligi haqiqiy tarixiy qarama-qarshiliklarga mualliflarning xayoliy qarorlarini tashkil etadi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Berke A. Writing the nation. Concise introduction to American literature. From 1865 to present. University of North Georgia Press. P. 762
2. Sculley, B. The American Tradition in the Literature. 5th ed. Vol. 2, W. Norton & Company Inc., New York. 1999. P. 12
3. <https://doi.org/10.1002/9781119056157.ch84>
4. Б. А. Гиленсон. История литературы США. «Академия», 2003. С. 6-9

5. Webster, Sandra, "The rhetoric of realism: American psychology and American literature, 1860-1910" (1994). Doctoral Dissertations. 1797. <https://scholars.unh.edu/dissertation/1797>. P XVII
6. Nebbou A. The Rise of the 20th Century American Novel in the Inter-War Phase. Arab World English Journal Special Issue on Literature No.3 October, 2015 Pp. 211-223
7. Webster, Sandra, "The rhetoric of realism: American psychology and American literature, 1860-1910" (1994). Doctoral Dissertations. 1797. <https://scholars.unh.edu/dissertation/1797> P 30
8. Расулий М. ва бошқалар. "Л. Толстой ва ўзбек адабиёти". "Фан". Тошкент. 1979. 41 б.
9. Thompson, G. R. Reading the American novel 1865-1914. Wiley-Blackwell. 2012. P17.
10. Nikolyukin, A. N., and Lauren G. Leighton. "Past and Present Discussions of American National Literature." *New Literary History*, vol. 4, no. 3, 1973, pp. 575-90. *JSTOR*, <https://doi.org/10.2307/468536>. Accessed 21 Aug. 2023
11. Lauter P. A Companion to American Literature and Culture. Wiley-Blackwell. 2010. P 369
12. Tajuddin M. "The tragicomic novel: Camus, Malamud, Hawkes, Bellow." In partial fulfillment of the requirements for the degree, Doctor of Philosophy on Comparative literature. Indiana University. 1967. P 17.
13. <https://search.proquest.com/openview/d02885cd3340cb2d12a8ab30f0abc7aa/1?pq-origsite=gscholar&cbl=2042289>
14. Saidov. A. Zamonaviy amerika romanlari. Toshkent. O'zbekiston. 2018. 4-5b
15. <https://www.proquest.com/openview/dbd7548db0ff02071d1c01f4c0c0837a/1?pq-origsite=gscholar&cbl=18750&diss=y>

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ 10 (3) – 2023

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).